

INSONPARVARLIK SIFATLARINING BOLALARGA XOS KO'RINISHINI TARBIYALASH

Jumanova Nasiba Umumiy psixologiya kafedrasini katta o'qituvchisi

Mullaboeva Ziyoda-Psixologiya (amaliy psixologiya) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik sifatlarini tarbiyalash, axloq qoidalarini egallab olinishi, munosabatlarda nima yaxshi-yu , nima yomon ekanligini chuqurroq anglash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lismi, tarbiyachi, axloq, munosabat, bola.

Mamalakatimizda maktabgacha ta'limi tizimiga yagona kompleks sifatida qarash talab etilmoqda. Bu esa bolalarning maktabgacha ta'lim olishini, professional tayyorgarlikka, ega bo'lgan yoshlarning shaxs sifatida ma'naviy va axloqiy kamol topishini ta'minlaydi. Demak, maktabgacha ta'lim muammolarini yangicha nuqtai nazardan ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Hozirgi kunda, mustaqillik munosabati bilan o'quv -tarbiya jarayonida juda ko'p o'zgarishlar yuz bermoqda, yangisini ishlab chiqish va keng ko'lamda maktabgacha ta'linda qo'llash bosh omil bo'lib qolmoqda. Xususan maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan o'quv- tarbiya masalalari ham muhim o'rinni egallaydi degan xulosaga kelamiz.

Shundan kelib chiqqan holda maktabgacha yoshidagi bolalarni axloqiy sifatlarni, milliy ongni shakllantirish ma'naviy va jismoniy kamol toptirish ishlari tashkil etilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik sifatlarini tarbiyalash pedagogning ishidagi eng muhim vazifadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasidagi munosabatni to'g'ri shakllantirish bolalarni o'zaro yoqtirishi, bog'chaga ko'ngil qo'yishi, tengdoshlari va o'z xulqini bahoiy olish ko'nikamasi asosiga quriladi. Bolalar tomonidan axloq qoidalarini egallab olinishi, ular atrofidagi ishlar bilan o'zaro munosabatda nima yaxshi-yu , nima yomon ekanligini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, 5-6 yoshli bolalarning kattalar, tengdoshlari va kichik yoshdagilar bilan aloqasi sezilarli darajada kengayadi. Endi ulaming umumiy kechinmalari, xursandchiliklari, tashvishlari ko'paya boradi. Bu ijtimoiy his-tuyg'ular bolalarning o'zaro munosabatlariga samarali ta'sir qiladi: o'yin jarayonida ishonch, o'rtoqlariga nisabatan xayrixoh bolish sifatlari shakllanadi, kelishilgan holda o'ynash va bir-biriga yordam berish istagi paydo bo'ladi.

Masalan: O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish jarayonida, o'yin yoki mehnat qilish paytida , bir boiada ikkinchisiga qandaydir harakatni bajarishda - tugma qardashda, qurilish materiallarini taxlashda , gullarga suv quyishda yordamlashadi.

Bu yoshda bolada tengdoshiga yordam berish imkoniyati sezilarli darajada kengayadi. Bunday yordam ayniqsa saxiylikni, do‘stlikni, o‘zaro bir-birini qo‘llab quvvatlashni tarbiyalashda ayniqsa muhim bo‘lib, bu paytda erishilgan muvaffaqiyat ikkala bolaga ham quvonch keltiradi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Bu o‘rinda bolalar asosan “U menga o‘rgatdi”, “bu ish qanday bajarilishini u menga to‘g‘ri tushuntirib berdi”, deb o‘rtoqlarining ijobiy sifatlarini ko‘rsatadilar.

Tarbiyaning qulay bir sharoitda, bola hatti-harakatining axloqiy normalarini egallab borayotgan bir paytda bola ko‘rsatayotgan yordamning alohida ko‘rinishi bolalarning bir-birlarini xulq-atvoriga ta’sir etishi hamda bir-birlarini ma’naviy qo‘llab quvvatlashi shakllanadi, unda tengdoshiga hamdard bo‘lish, uni yupatish, tinchlantirish istagi paydo bo‘ladi. Tarbiyachi qanday qilib bo‘lsa ham boladagi hamdardlik bildirishga bo‘lgan intilishini qo‘llab quvvatlashi kerak, xuddi shu asosda tarbiyalanuvchilarning o‘z o‘rtoqlariga yordam berish qobilayati va ko‘nikmalarini mustahkamlashi, masalan “Qoyil Bahora, sen Fotimaning yo‘qolib qolgan tugmasini topishga yordam berding”, “Mardon meni juda xursand qildi: u o‘zidan kichkina yig‘layotgan Alisherni ovutdi “ -deyishi lozim.

Bolalarning bir-birlariga o‘zaro yordam berish zarurligi to‘g‘risidagi tasavvurlarini mustahkamlashda, o‘rtoq degani nima?, o‘rtoqqa qachon va qanday yordam berish kerak? degan mulohazani shakllantirishda tarbiyachining bolalarga odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va ularning ahloqiy xatti- harakatlari to‘g‘risida so‘zlab berishlari juda qimmatlidir. Shu maqsadda tarbiyachi “Nargizaning shifokor onasi bemorini qanday tuzatgani”, “Azizning otasi yo‘qolib qolgan qo‘shni bolani qanday qilib topgani“ haqida so‘zlab berishi tarbiyalanuvchilarning ota-onalari hayotidan olingan aniq misollar asosida keltiriladi.

Bu o‘rinda tarbiyachi dastur asosida ko‘rsatilgan badiiy adabiyotlarda A. Irisovning “Bilmay qolib” hikoyasini, Kechiring, oyijon! (Hikoya) “Buvijonlarimiz” Farxod Musajonovning “Tolabber” hikoyalarini so‘zlab erish lozim.

Bu hikoyalar bolalardagi kishilarning qahramonliklari, o‘zaro yordamlari to‘g‘risidagi tasavvurlarini oydinlashtiradi, huddi shu asosda bolalaming qiziqarli o‘yini kengaytiriladi. Ana shu jarayonda bolalar o‘zlaridagi g‘amxo‘rlik, saxiylik va boshqa sifatlarni namoyon qilishga harakat qiladilar. Shunday qilib, bolalar faoliyatining turli ko‘rinishlarida o‘yinda, mashg‘ulotlarda, sayrda va turmushda aloqa o‘rnataladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining kundalik hayotida bolalarda axloqiy tasavvurlarni chuqurlashtirish va yorqinlashtirish hamda insonparvarlik hislarini tarbiyalash uchun imkoniyatlar tug‘ilmoqda. Tarbiyachilar bolalarni axloqiy xarakterdagи voqealarga, uni anglagan holda yondashishga o‘rgatadilar.

Bolalardagi axloqiy tasavvur va insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirishni kundalik hayotda ham muntazam ravishda, maqsadga qaratilagan holda olib borish lozim.

Har qanday axloqiy qoida, talab va ko‘rsatmalarni bola hayotiga olib kirishda ehtiyyot bo‘lish kerak, ularni muayyan darajada bo‘lsa ham insonparvarlik tomonini yaxshilab o‘ylab ko‘rish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy

madaniyatni va ularda insonparvarlik xislatlarini tarbiyalashning asosiy va zarur sharti-bu maktabagcha ta’lim tashkilotidagi kundalik hayotni (kun tartibini), o‘quv -tarbiyaviy jarayonning to‘g‘ri tashkil qila olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Nasiba Jumanova, SELI I ZADACHI AKTIVATSII, USKORENIYa PEDAGOGICHESKIX TEXNOLOGIY , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: Tom 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
2. Jumanova, N. (2021). PROFILAKTIKA PSIXOLOGICHESKIX DEFEKTOV V RAZVITII LICHNOSTI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 1(1). izvlecheno ot <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>
3. Jumanova, N. (2021). XARAKTERISTIKI PROBUJDENIYa BOLShOY GRUPPY DETEY LYUBOV K LITERATURE. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 1(1). izvlecheno от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>
4. Jumanova, N. (2020). AKTUALNIE VIZOVOI SOVREMENNOY NAUKI. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.
5. Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.
6. Atamurodova, R. K., Jumanova, N. Sh., & Alimkulov, S. O. U. (2016). Vzglyady uchyonyx srednevekovya o dushe cheloveka. Problemy pedagogiki, (8 (19)).
7. Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN'S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).
- 9.Jumanova, N., & Ҳамидова, М. (2023). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТИ ЖАРАЁНИДА КАСБИЙ МОТИВАЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8343>
- 10.Jumanova, N. (2023). O‘SMIRLARDA STRESSNING PAYDO BO‘LISHI VA UNING OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH USULLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8332>